

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

FUTBOLCHILARINING HARAKAT FAOLIYATINI VA EMOTSIONAL HOLATINI BAXOLASHNING XUSUSIYARLARI

Satiev Shuxrat Komilovich,

Namangan davlat pedagogika instituti, katta o'qituvchi

Annotatsiya: ushbu maqolada futbolchilarning aqliy rivojlanishining xususiyatlari, ruhiy o'smalari, futbolchilarning hissiy holati va funktional psixologik tayyorgarligini aniqlash va baholash usullari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: stress, ruhiy stress, emotsional stress, ruhiy stresslar, hissiy holat, futbolchilarning hissiy sohasi.

Kirish. Jahon jismoniy tarbiyasi va sporti hamda sport o`yinlaridan bo`lgan millionlar o`yini futbolning taraqqiyoti jamiyat yuksalishining asosiy omillaridan biriga aylanmoqda va XXI asr futbolining muammolaridan biri futbolchilarni texnik-taktik va psixologik tayyorlash masalalaridan biri bo`lib kelmoqda. Zamonaviy sportning rivojlanishi ilg'or tajribalarni professional darajada tushunmasdan va sport mashg'ulotlarining turli bosqichlarida sport mashg'ulotlarini boshqarishning ilmiy-metodik asoslarini yanada rivojlantirmasdan mumkin emas. Futbolda sport mashg'ulotlarining alohida jihatlari P.N.Kazakov., G.Gadjiev ., G.M.Mgadjiev., M.A Godik., G.S.Zonin., Yu.K.Lukin., M.A.Godik., S.V.Golomazov., B.G.Chirva., A.P.Zolotarev., V.Z.Ivasev. va S.N.Andreevning ilmiy –uslubiy ishlarida ko'rib chiqilgan.

Shu bilan birgalikda O`zbekiston Respublikasi prezidenti va xukumati va soxa Vazirligining farmon,qaror va bo`yruqlari jismoniy tarbiya va sport soxasini rivojlantirish va unda yangi innovatsion g`oyalarni oldinga surish va sport soglomlashtirishni rivojlartirishni ko`zda tutadi. Jumladan: O`zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi "Jismoniy tarbiya va sport to`g`risida"¹ gi Qonuni, O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi va qo`llab-quvvatlashi bilan O`zbekistonda 2017-2021 yillar uchun jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish dasturi . «Yoshlarni ma`naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta`lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko`tarish chora-tadbirlari to`g`risida»² - 2018 yil 14 avgustdagi PQ-3907-sonli O`zbekiston Pespublikasi prezidentining qarori, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida»³ 2018 yil 5 martdagi PF-5368-son Farmoni, shuningdek, 2018 yil 16 mart, PQ-3610-sonli "Futbolni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"⁴gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorida O`zbekiston yoshlar ittifoqi va O`zbekiston futbol assotsiatsiyasi

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

mablag`lari hisobidan moddiy rag`batlantirish tartibini joriy etish to`g`risidagi takliflari qo`llab-quvvatlanishi, futbol va boshqa sport turlarini ommalashtirish, sog`lom turmush tarziga o`rgatish, mahallalarda istiqomat qiluvchilar orasidan istiqbolli va iqtidorli bolalar va yoshlarni tanlab olish (selektsiya) ishlarini tashkil etish masalalarida tuman (shahar) jismoniy tarbiya va sport bo`limlari, bolalar va o`smirlar sport maktablari, bolalar va o`smirlar futbol akademiyalari, sport federatsiya (assotsiatsiya)larining hududiy bo`linmalari bilan hamkorlik qiladi deb belgilab berilgan. O`zbekistonda shu qaror asosida bir qator ibratli ishlar olib borilmoqda.

So`nggi yillarda nashr etilgan sport adabiyotlarida sport mashg`ulotlariga sportning jismoniy harakatini boshqarish jaryoni sifatida qarash ko`p bora ta`kidlangan. Hozirgi paytda testlar sportning har xil turlarida keng qo`llaniladi, ulardan tezkor joriy hamda oraliq nazoratda foydalaniladi. Futbol sohasida mutaxassislar sportchilarning jismoniy tayyorgarligini turli jihatdan baholashga eng ko`p ahamiyat beradilar.

Futbolchilarning o`yin faoliyati faqat sakrash, yugurish va yurishdan iborat emas, balki ularning harakati anchagina murakkabdir. Bu jarayonda ular raqib bilan kurashishi, eng katta tezlikda yugurishi, murakkab taktik vazifalarini bajarishadi. Shuning uchun futbolchilarning jismoniy tayyorgarligi ularning o`yin faoliyati xarakterini hisobga olgan holda, texnik va taktik mahoratini takomillashtirishga asos bo`lsin.

Ushbu fikrni Sh .T. Iseyev., R.I. Nurimov ham qullab-quvvatlaganlar. O. A Qurbonov, I.A Qo`shbahtiyev va boshqalar.) futbolchining umumiyligi tayyorgarligi jismoniy qobiliyatni har tomonlama tarbiyalash, umumiyligi qobiliyatini oshirish vazifalarini hal qilinishi va umumiyligi rivojlantiruvchi mashqlarning shug`ullanuvchilar organizmiga umumiyligi ta`sir ko`rsatuvchi sportning boshqa turlari bilan bog`liqligini ta`kidlaydilar.

Tadqiqotning maqsadi. Futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarligini tekshirish, xarakat faoliyatini aniqlash va emotsiyal xolatini baxolash bo`yicha – “SEXB”-(*sportchilarni emotsiyal xolatini baxolash*)- metodini ishlab chiqish va tajribada sinab ko`rish xamda asoslash.

Muhokama va natijalar. Futbolchilarni texnik-taktik tayyorgarligini, xarakat faoliyatini tekshirish usullari, sportchining shaxsiy xarkter sifatlari va bu sifatlardagi nuqsonlar natijasida emotsiyal yuklar, depretsiyalar, jaroxat stresslarinin va emotsiyal noxushliklarni yengib o`ta olmaslik sportchilar ,futbolchilar faoliyati voqeliklari ob`ektiv, usullarning maqsadli aniqligini takomillashtirish metodikasi bo`yicha ishlab chiqilgan nazariy va amaliy takliflar asosida:

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

Futbol akademiyalari tarbiyalanuvchilari U-16-17 yoshlilar guruxlarining tadqiqot guruxi bulgan Namangan futbol akademiyasi tarbiyalanuvchilarida o`tkazilgan tajribalar va kuzatuvlar shuningdek yuqorida keltirilgan futbolchilarni texnik-taktik tayorgarligini, xarakat faoliyatini tekshirash usullari va 6 bosqichli psixodiagnostik SEXB metodi asosidagi tadqiqot quyidagicha natijalarini ko`rsatdi.

Futbolchilarni texnik-taktik tayorgarligini, xarakat faoliyatini tekshirash usullari, emotsiyonal xolatni baholash, xamda olingan ma`lumotlarga asoslangan xolda futbolchilarni emotsiyonal xaolatlarini baholashning metodkasi orqali futbolchi bolalarni musobaqalar va mashg`ulotlar davrida emotsiyonal xolatlarini baxolashni imkoniyatlarni yaratdi. SHuningdek, futbolchilarni emotsiyonal xolatini baxolash bo`yicha – “SEXB”-(*sportchilarni emotsiyonal xolatini baxolash*)- metodini ishlab chiqilgan va tajribada asoslab amaliyotda qo`llash uslublarining natijalarini tadqiq etilgan;

Futbolchilarni emotsiyonal xolatini baxolash bo`yicha – “SEXB”-(*sportchilarni emotsiyonal xolatini baxolash*)- metodini EXM va mobil ilovalarini ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Natijada;

1. Hammasi bo`lib Namangan FA jamoasi har bir o`yinda o`rtacha $878,4 \pm 18,06$ TTX ko`rsatkichi bilan $29,65 \pm 0,05\%$ nuqsonlar(brak) ko`rsatkichini qayd etadi Andijon. FA jamoa har bir o`yinda o`rtacha $775,2 \pm 16,04$ TTX o`tkazadi, nuqsonlar(brak)darajasi $33,8 \pm 0,72\%$ bo`lib, bu Namangan FA jamoalariga qaraganda ancha kam ($p < 0,001$). Olingan ma`lumotlar ushbu kontingent uchun aniqlanadi, jamoalar championat va championatning ma`lum bir segmentida hal qiladigan vazifalar bilan belgilanadi, tayyorgarlik darajasiga, turnirdagi pozitsiyasiga, raqib jamoaga, o`yinga bo`lgan munosabatiga, mashg`ulotlarning muayyan naqshlariga bog'liq jarayon va boshqalar. Zamonaviy taktik konstruksiyalar va futbolni universallashtirishning umumiyy tendentsiyalaridan kelib chiqib, jamoa o`yinchilarining turli rollarga bo`linishi nisbatan shartli

2. Jamoalarning umumiyy hamma yugurishlarini (maksimal tezlikda yugurish, tez yugurish, sekin yugurish) hisoblanganda, «Namangan viloyati FA U-16» jamoasining yarim himoyachilari o`yin davomida $X=4456$ m natijani, «Andijon viloyati FA U-16» jamoasining yarim himoyachilariniki esa o`yin davomida $X=3822$ m natijani, «NamDU futbol jamoasi» jamoasining yarim himoyachilari esa o`yin davomida $X=3329$ m natijalarini qayd etishgan.

«Namangan viloyati FA U-16» jamoasining hujumchilari esa o`yin davomida $X=4004$ m natijani, «Andijon viloyati FA U-16» jamoasining hujumchilari $X=2994$ m

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

natijani, «NamDU futbol jamoasi»jamoasining o`yin davomida ko`rsatgan natijalari esa $X=2432$ m masofani turli harakatlar blan bosib o`tgan. Futbol akademiyalari O`zbekiston chempionatida ishtirok etuvchi «Namangan viloyati FA U-16»jamoasining himoyachilari o`yin davomida $X=2853$ m natijani «Andijon viloyati FA U-16» jamoasining himoyachilari esa o`yin davomida $X=2736$ m natijani, «NamDU futbol jamoasi»jamoasining himoyachilari o`yin davomida $X=2649$ m natijani qayd etishgan. Bundan ko`rinib turibdiki, harakat faoliyati taba-ani turli bo`lishiga ham bo`liq bo`ladi. Ikkinci tabakada ishtirok etuvchi jamoasini natijalari o`yin davomida yuqori emas. Lekin tabaqani ko`tarilishi bilan o`yinchilarning harakat faoliyati ham ko`tarilib borar ekan

3. Sportchining emotsional xolatini baxolash bo`yicha musobaqa faoliyatini kuzatishda emotsional xolatini baxolashning darajalarini ko`rsatkichlari tajribada qo`llanilganda Namangan viloyati futbol akademiyasi **U -16** yoshli futbolchilar jamoasining emotsional xolatlarini umumiy jamoaviy ko`rsatkichi **8.2** balldan **12.3** balga yaxshilandi .

4. Sportchining emotsional xolatini baxolash bo`yicha musobaqa faoliyatini kuzatishda emotsional xolatini baxolashning darajalarini ko`rsatkichlari tajribada qo`llanilganda futbolchilarning emotsional stresslarga bardoshlilik darajalari jamaa o`yinchilarining safi misolida tadqiqot natijalariga ko`ra futbolchilardan “Adaptatsiya” guruxi 13.4.0% dan 17.6% ga o`sgani ,“Abuliya”guruxi 30.4% dan 8.6% foizga pasayganini ” Abaziya” guruxi 21.3% foizi dastlabki ko`rsatkichdan 4.3% foizga pasayish , Aversiv” musobaqa davrida stresslarga bardoshlsizlar guruxi 43.0 % dan 36.6 % ga pasaygandi va umumiy stresslarga bardoshlilar darajasi 12.5 % ga yaxshilandi

Yaratilgan psixologik diagnostika metodikasi kompyuter dasturi va mobil ilovasi asosida futbolchilarni psixolgik tayyorgarligini oshirish metodikasi va tavsiyalari ishlash asosida, sporchning emotsional xolatini baxolash bo`yicha musobaqa faoliyatini kuzatishda emotsional xolatini baxolashning darajalarini ko`rsatkichlari tajribada qo`llanilganda futbolchilarning emotsional stresslarga bardoshlilik darajalari “Adaptatsiya” guruxi 15.4.0% dan 18.6% ga o`sgani ,“Abuliya”guruxi 32.4% dan 9.6% foizga pasayganini ” Abaziya” guruxi 23.3% foizi dastlabki ko`rsatkichdan 4.3% foizga pasayish , Aversiv” musobaqa davrida stresslarga bardoshlsizlar guruxi 45.0 dan 40.6 % ga pasaygandi va umumiy stresslarga bardoshlilar darajasi 15.5 % ga yaxshilandi .

Xulosa. Uchrashuv vaqtida o`yinchilarni ruxiy tayyorlashda murabbiyning to`g`ri nasihatlari katta o`rin tutadi. Shuni ta`kidlash kerakki, agar murabbiy o`zini

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

va salbiy start oldi holatlarini boshqara olmasa, nasihat berishdan o`zini tutishi kerak, chunki uning salbiy holati futbolchilarga tez o`tadi. Futbolchining irodasini u yoki bu harakatga safarbar etish uchun uning harakter xislatlariga, nafsoniyatiga ta`sir etish yoki musobaqada qatnashishida jamoaga xos bo`lgan muhim motivlarni ishlatish ham mumkin.

Futbolchining xulq-atvori va ruxiyatiga ta`sir etadigan har xil usullarni ehtiyyotkorlik bilan, ularga moslashtirib qo`llash lozim. Agar o`yin reja bo`yicha o`tayotgan bo`lsa va o`yinni o`zgartirish zaruriyati bo`lmasa, unda nasihat berishning hojati yo`q. Chunki o`yinchining ayni daqiqada o`yinga bo`lgan jangovar holatiga salbiy ta`sir etish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Makhmudovich, Gofurov Abduvokhid, and Mahmudjonov Asilbek Abduvokhid o`g`li. "THE ROLE OF SPORTS IN ACHIEVING SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 13-15.
2. Мухторжон оглы, Изатуллаев Алишер. «ЗНАЧЕНИЕ СПОРТИВНЫХ ИГР В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ». ЖУРНАЛ ИННОВАЦИЙ В НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ 6.4 (2023): 164-167.
3. Мухторжон оглы, Изатуллаев Алишер. «РАЗВИТИЕ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ РЕБЕНКА-ПОДРОСТКА С ПОМОЩЬЮ НАСТОЛЬНОГО ТЕННИСА». Научный импульс 1.9 (2023): 68-71.
4. Odilbek o`g`li, Dovulbekov Aqlbek, Siddiqova Feruza Abdulxayevna, and Mahmudjonov Asilbek Abduvohid o`g`li. "VALEYBOL SPORT TO`GARAGI ORQALI SHUG`ULLANUVCHILARNING JISMONIY RIVOJLANISHINI NAZORAT QILISH USLUBLARI." O`ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI 2.16 (2023): 387-390.
5. Dexqonov, B. (2023). Preparation of future physical education teachers for innovative activities. Models and methods in modern science, 2(12), 82-86.
6. Кувватов У.Т Якубжонов, И. А., & Шокиров, Ш. Г. (2022). " Развитие воспитательной работы в студенческой футбольной команде.". In International conference: problems and scientific solutions (Vol. 1, pp. 140-147).

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

7. Umidovich, A. B. (2023). Unusual volleyball training sessions. International journal of social science & interdisciplinary research issn: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(06), 1-4.
8. Umarova, Z. U., Mirzarakhimovich, R. S., & Tursunovich, K. U. (2022). Sports and Great Heroes. Pioneer: Journal of Advanced Research and Scientific Progress, 1(4), 141-143.
9. Anvarovich, I. S., Tokhirovich, K. T., & Tursunovich, Q. U. (2022). Use problem-solving techniques in school gymnastics. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 512-513.
10. Abduhamidovich, M. I., Mansurovich, M. S., & Usmonovich, A. U. (2022). Selection of talented wrestlers and education of physical perfection in the process of wrestling activities in sports schools. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 12(4), 166-167.
11. Tahirjonovich, Arabboev Kahramon. "Matters of physical education in kaikous" "QABUSNAMA". Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.1 (2023): 223-226.
12. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Arabboev Qahramon Tokhirzhonovich. "Features Of Physical Education Of Preschoolers." International Journal of Early Childhood Special Education 15.2 (2023).
13. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўқув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.
14. Arabboev, Qahramon. "Madaniy me'roslarimizda jismoniy tarbiya masalalari." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 6 (2023): 643-648.
15. Muratova, G. R., and Q. T. Arabboev. "The role of sport in people's health." International Journal of Early Childhood Special Education 14 (2022).
16. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE "INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.
17. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

Jismoniy tarbiya va sport sohasi samaradorligini oshirishda fiziologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar va fanlararo integratsiyalashuv masalalari

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.

18. Муратова, Гулнара Рашитовна. "История древней и современной лёгкой атлетики." Ученый XXI века 20 (2016).
19. Muratova, G. R. "MODERN REQUIREMENTS FOR THE CREATION OF EDUCATIONAL PUBLICATIONS ON PHYSICAL EDUCATION FOR SECONDARY SCHOOLS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 1-4.
20. Муратова, Гулнара Рашитовна. "УКРЕПЛЕНИЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗМА ЧЕРЕЗ ЗАНЯТИЯ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРОЙ И СПОРТОМ." INTERNATIONAL CONFERENCE: PROBLEMS AND SCIENTIFIC SOLUTIONS.. Vol. 2. No. 7. 2023.
21. Makhmudovich, Gafurov Abdushokir. "Medical problems of sports selection and sports orientation." ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 7.603 11.12 (2022): 313-318.
22. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat. "Analysis Of The Paradigm Of The Principles Of Overcoming The Problems Of Productivity Of Researchers Conducting Research In The Field Of Physical Culture." Journal of Positive School Psychology (2023): 529-534.
23. Умаров, Абдусамат, and Махлиёхон Хожимуродова. "OILA VA NIKOH SHAROITIDA AYOLLAR SPORTINING MUAMMOLARI." Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. 3.6 (2023): 313-317.
24. Urinbaevna, Umarova Zulkumor, and Umarov Abdusamat Abdumalikovich. "THE IMPORTANCE OF TRAVEL AND TOURISM IN FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN HIGH SCHOOL STUDENTS." Open Access Repository 9.10 (2023): 1-7.
25. Abdumalikovich, Umarov Abdusamat, and Umarova Zulkumor Urinboyevna. "THE USE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN IMPROVING THE QUALITY OF PHYSICAL EDUCATION LESSONS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.11 (2023): 421-424.
26. Umarov, Abdusamat, and Layloxon Maxmudova. "AHOLINING TURLI QATLAMLARINI DAM OLISH MASKANLARI VA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TADBIRLARINING AHAMIYATI." Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi 7 (2023): 726-731.